

## XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA O'ZBEKISTON XO'JALIK SUBYEKTLARIDA JORIY AKTIVLAR HISOBI VA MOLIVAVIY BARQARORLIK TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

**Safarov Alisher**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-5890-3982

[alilionsafarov@gmail.com](mailto:alilionsafarov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi xo'jalik subyektlarida joriy aktivlar hisobini va moliyaviy barqarorlik tahlilini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish masalalari o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi joriy aktivlar tarkibidagi debitorlik qarzlari, pul oqimlari, tayyor mahsulot zaxiralari va boshqa aylanma mablag'larni samarali boshqarish orqali korxonalar moliyaviy barqarorligini oshirish yo'llarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat. O'zbekiston sharoitida mavjud muammolarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** joriy aktivlar, debitorlik qarzlari, diskont, amortizatsiya, pul mablag'lari, TMZ, yalpi foyda, soft tushum, MHXS, BHMS.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ТЕКУЩИХ АКТИВОВ И АНАЛИЗА ФИНАНСОВОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В ЭКОНОМИЧЕСКИХ СУБЪЕКТАХ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

**Сафаров Алишер**

Ташкентский государственный  
экономический университет

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования учета текущих активов и анализа финансовой стабильности в экономических субъектах Республики Узбекистан на основе зарубежного опыта. Основная цель исследования научное, теоретическое и практическое обоснование путей повышения финансовой стабильности предприятий за счет эффективного управления дебиторской задолженностью, денежными потоками, запасами готовой продукции и другими оборотными средствами в структуре текущих активов. Разработаны рекомендации по устранению существующих проблем в условиях Узбекистана на основе международных стандартов финансовой отчетности (МСФО).

**Ключевые слова:** текущие активы, дебиторская задолженность, дисконт, амортизация, денежные средства, валовая прибыль, чистая прибыль.

## IMPROVING CURRENT ASSET ACCOUNTING AND FINANCIAL STABILITY ANALYSIS IN UZBEK ECONOMIC ENTITIES BASED ON FOREIGN EXPERIENCE

**Safarov Alisher**

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article studies the issues of improving current asset accounting and financial stability analysis in economic entities of the Republic of Uzbekistan based on foreign experience. The main purpose of the study is to scientifically, theoretically and practically substantiate ways to increase the financial stability of enterprises through effective management of receivables, cash flows, finished product inventories and other working capital in the current assets structure. Recommendations have been developed to eliminate existing problems in the conditions of Uzbekistan based on international financial reporting standards (IFRS).*

**Keywords:** *current assets, receivables, discount, depreciation, cash, gross profit, net income.*

### **Kirish.**

Jahon iqtisodiyotni rivojlantirish raqamli texnologiyalarga asoslanayotgan sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratdi. Joriy aktivlar xom-ashyodan tovar shakliga o'tishning yopiq siklidan o'tadigan korxonalarida ularning buxgalteriya hisobi va tahlilini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra «2021 yilda 2020 yilga nisbatan xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy aktivlari aylanuvchanligi darajasi AQShda-28 foizga, Fransiyada-25 foizga, Germaniyada-22 foizga, Yaponiyada-18 foizga o'sgan»<sup>1</sup>. E'tiborli jihati, jahonda eng yirik kompaniyalar jami aktivlar tarkibida joriy aktivlar salmog'i 35-40 foizni tashkil etgan. Rivojlangan mamlakatlar o'z aylanma mablag'larini foydaga ta'sirini doimiy ravishda nazorat qilib, ularni yuqori ko'rsatkichlarga erishishning muhim omili sifatida qaramoqda. Shu bois, joriy aktivlar hisobini yuritish, hisobotda aks ettirish, ular tahlilini tashkiliy-uslubiy jihatlarini rivojlantirish va auditi uslublarini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish zarurati hozirgi globallashtirish jarayonida mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarining jami aktivlar tarkibida joriy aktivlar salmog'i 85-92 foizni tashkil etishi, tarmoqda barqaror iqtisodiy holatini saqlab qolishga e'tibor berish muhim ahamiyatga egaligini taqozo etmoqda. Bugungi iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida har qanday korxonaning samarali iqtisodiy faoliyati uning ehtiyojlari va salohiyatini baholash asosida ishlab chiqilgan malakali iqtisodiy strategiyaning natijasidir. Korxonalar rivojlanib borishi bilan joriy aktivlarga, xususan, ishlab chiqarish zaxiralariga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi, ya'ni hech bir kompaniya ularsiz faoliyat yurita olmaydi. Shu sababli ham joriy aktivlarining buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish, joriy aktivlarni tahlil qilish va birinchi navbatda korxonaning ishlab chiqarish zaxiralari bilan ta'minlanganligini o'rganish, ulardan foydalanish samaradorligini baholash zarurati tug'iladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlar tomonidan to'plangan tajriba va ishlanmalar, ilmiy asarlarini o'rganishda «joriy aktivlar» tushunchasiga turlicha qarashlari, «aylanma aktivlar», «aylanma kapital», «qisqa muddatli aktivlar», «aylanma mablag'lar» kabi yondashuvlar bildirib o'tishgan.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga ko'ra, «Joriy aktivlar hisobot davridan so'ng o'n ikki oy mobaynida realizatsiya qilinishi kutilmasa ham, odatdagi operatsion sikl davomida sotiladigan, iste'mol qilinadigan yoki realizatsiya qilinadigan (zaxiralar va savdo debitorlik

<sup>1</sup> <https://worldbank.org> Why is the "quality" of infrastructure investment essential for building back better?

qarzlari kabi) aktivlarni o'z ichiga oladi» (1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti, 2022). Bunda joriy aktivning kelajakdagi iqtisodiy foydasi tashkilotning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita oshirish potentsiali bilan ifodalaydi.

Jumladan, Saoud, Mashkour Alamry (2019) «Joriy aktivlar biznesning normal jarayonida bir yil ichida naqd pulga aylanishi kutilayotgan barcha aktivlarning qiymatini ifodalaydi. Joriy aktivlarga tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik qarzlari, sotiladigan qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari, oldindan to'langan xarajatlar va osonlik bilan pulga aylanishi mumkin bo'lgan boshqa likvid aktivlar kiradi». Uning qarashicha joriy aktivlar pulga aylanishligi bilan bog'liq degan fikr bilan cheklangan.

Kurbonov va Misirovlarning (2022) fikricha, «Joriy aktivlar, odatda, naqd mablag'larni, iste'molchilar hisobraqamlarini va naqd mablag'lar shaklini egallashi lozim bo'lgan zaxiralarni o'z ichiga oladi. Joriy xo'jalik davri mobaynida bu aktivlar doimo o'zgarishi mumkin. Naqd mablag'larga aylantirilishi oson bo'lgan joriy aktivlar oson realizatsiya qilinadigan aktivlarga kiritiladi». Ushbu yondashuvda debitorlik qarzlari va boshqa joriy aktivlar tushunchasi to'liq ochib berilmagan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, joriy aktivlar – xo'jalik faoliyatini uzviylikini ta'minlash, boshqarishda investitsion jozibadorligini oshirishga kelajakda iqtisodiy foyda olish va majburiyatlarni so'ndirishga xizmat qiladigan, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida bir sikl jarayonida qatnashadigan aktivlar tushuniladi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishimizda ilmiy abstraksiya, iqtisodiy kuzatish, dalillar to'plash, tasavvur etish, guruhlash, tizimli yondashuv, ekspert baholash, statistik va iqtisodiy tahlil, modellashtirish, natijalarini tahlil qilish, kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish kabi usullaridan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (BHXS 2- «Zaxiralar»)da ham qayta sotish uchun mo'ljallangan er va boshqa mulklarni o'z ichiga olinishligi TMZlar hisobida yuritilishiga doir jihatlari chuqur o'rganildi.


«Tovar-moddiy zaxiralar» 4-sonli BHMS talablari xorij tajribalari bilan solishtirib o'rganilganida, ba'zi farqli jihatlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, asosiy faoliyati qurilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda **sotish uchun sotib** olingan yoki o'zi tomonidan yaratilgan ko'chmas mulk obyektlariga doir ishlari olib boriladi, lekin ularning tayyor mahsulotlar tarkibida buxgalteriya hisobida yuritilishi bilan bog'liq jihatlar, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-sonli BHMS) «Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»sida hamda (4-sonli BHMS) «Tovar-moddiy zaxiralar» deb nomlangan standartda etarlicha ochib berilmagan.

Bu esa mamlakatimizda qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda **sotish uchun sotib** olingan yoki o'zi tomonidan yaratilgan ko'chmas mulk obyektlarini kirim qilish va uni sotish bilan bog'liq buxgalteriya operatsiyalarini bajarilishida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolardan hisoblanmoqda.

Debitorlik qarzlari xo'jalik subyektlarning tovar-moddiy zaxiralar, pul mablag'lari va qabul qilingan majburiyatlar harakati bilan bog'liq ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini amalga oshirganda yuzaga keladi. Debitor qarzlari korxonaga boshqa shaxslar (yuridik yoki jismoniy) tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarning sifatida tushuniladi. Korxonada o'zining odatiy xo'jalik faoliyatida sotilgan tovarlar yoki bajarilgan ishlar uchun pul to'lanmasa-da, korxonada bu pul mablag'larini olishga huquq paydo bo'ladi. Shuning uchun bu haqdorlik joriy aktiv sifatida buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Debitorlik qarzlarning mavjudligi deyarli har qanday xo'jalik subyekti uchun odatiy holdir, lekin shu bilan birga, debitorlik qarzlarning yuqori miqdori korxonaning iqtisodiy

faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular pul mablag'larini vaqtincha muomaladan chiqishiga olib keladi.



**1-rasm. "O'ZTEMIRYO'LMASHTA'MIR" Aksiyadorlik jamiyati debitorlik qarzining aktivlar umumiy miqdoridagi ulushi**

*Manba: O'ZTEMIRYO'LMASHTA'MIR Aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari asosida muallifishlanmasi*

Debitorlik qarzining aktivlar tarkibidagi ulushi 2020-yildagi 24,47% dan 2022-yilda 47,84% ga — ya'ni 2 barobarga oshgan. Bu holat korxonaning mahsulot yoki xizmatlarini kreditga sotish hajmining keskin ko'payganini yoki to'lovlarni undirib olish samaradorligining pasayganini bildiradi. Barqarorlashuv va yangi o'sish (2023–2024) 2023-yilda ulush 47,14% ga tushib, qisqa muddatli barqarorlashuv kuzatilgan. Biroq 2024-yilda yana o'sib, 49,13% ga yetgan — bu 5 yillik davrning eng yuqori ko'rsatkichi. Debitorlik qarzining aktivlardagi ulushi 50% ga yaqinlashishi jiddiy xavf signali hisoblanadi, chunki: korxonada mablag'larining yarmiga yaqini "muddatida qaytmagan talablar" shaklida qolmoqda, likvidlik koeffitsientlari yomonlashishi ehtimoli ortadi, pul oqimlarida tanqislik yuzaga kelish xavfi mavjud.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-son «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunida «debitorlik qarzlari» atamasining ta'rifi mavjud emas. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartida (BHMS) tartibga soluvchi yagona buxgalteriya qoidalari mavjud emas. Shu sababli, debitorlik qarzlarni hisobga olish bilan bog'liq masalalar faqat bilvosita buxgalteriya hisobining amaldagi qoidalari, xo'jalik yurituvchi subyektlari o'rnatilgan amaliyot asosida hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq buxgalteriya hisobi va hisobotlarini, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq tarzda debitorlik qarzlari hisobini yuritishni uyg'unlashuvini ta'minlash uchun isloh qilishning obyektiv zaruratini yuzaga keltirdi.

Bundan tashqari, debitorlik qarzlarni hisobga olishni tartibga soluvchi yagona buxgalteriya qoidalarini mujassamlashtirgan alohida MHXS mavjud emas. MHXSlarda Debitorlik qarzlari hisobini yuritishga doir jihatlari bir qator BHXS va MHXSlarda 1-son «Moliyaviy hisobotni taqdim etish», BHXS 32-son «Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish», 39-son «Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash», MHXS 9-son «Moliyaviy instrumentlar», 15-son «Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum», MHXS 13-son «Haqqoniy qiymatni baholash» va 16-son «Ijara» standartlarida umumiy tarzda keltirib o'tilgan. Biroq, moliyaviy

hisobotlarni tayyorlashda foydalanuvchilarni chalg'itmaslik uchun konservatizm tamoyiliga rioya qilish juda muhimdir.

Debitorlik va qarzlarini BHXS 39-son «Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash»ga asosan dastlabki tan olinganda, boshqa har qanday moliyaviy aktiv yoki majburiyat kabi adolatli qiymatda o'lchanishi kerak.

Moliyaviy vosita sifatida savdo debitorlik qarzlarini o'lchash qoidalari 9-MHXS «Moliyaviy instrumentlar»ning B3.1.2(a) bandida, shuningdek, korxonada naqd pul olish uchun qonuniy huquq beruvchi shartnomaviy munosabatlarga kirishganda, so'zsiz debitorlik qarzi aktiv sifatida tan olinishi aytiladi. Barcha moliyaviy aktivlar dastlab adolatli qiymat bo'yicha baholanadi. Keyingi o'lchash maqsadlari uchun 4.1.1-bandga» muvofiq, tashkilot moliyaviy aktivlarni keyingi baholashda quyidagi shartlarga asoslanib, amortizatsiyalangan qiymatda baholanadigan, foyda yoki zarar orqali haqqoniy qiymatda baholanadigan yoxud boshqa umumlashgan daromad orqali haqqoniy qiymatda baholanadigan moliyaviy aktivlar sifatida tasniflashi lozim.

«Debitorlik qarzi - bu tashkilotning tovon olishga bo'lgan shartsiz huquqidir. Agar tovon to'lanishi lozim bo'lgan paytning kelishi faqat vaqt o'tishiga bog'liq bo'lsa, tovon olinishiga bo'lgan huquq shartsiz hisoblanadi. Masalan, agar tashkilot to'lovni olish bo'yicha mavjud huquqqa ega bo'lsa, hatto ushbu summa kelgusida qaytarilishi mumkin bo'lgan taqdirda ham, tashkilot debitorlik qarzini tan oladi». 15-sonli MHXSga ko'ra qisqa muddatli debitorlik qarzlarini adolatli (haqqoniy) qiymatda, uzoq muddatli debitorlik qarzlarini esa adolatli qiymatda yoki amortizatsiyalanadigan qiymatda baholanishi mumkinligi keltirilgan.

Qisqa muddatli debitorlik qarzlarini diskontlanmaydi. Buning sababi shundaki, pul qiymati bir yildan kamroq vaqt ichida sezilarli darajada o'zgarib qaymaydi. Bundan tashqari, qisqa muddatli debitorlik qarzlarini qadrsizlanish uchun har qanday zaxiralarni chiqarib tashlagan holda adolatli qiymat bo'yicha aks ettiriladi.

Joriy aktivlarni tahlil qilish jarayonida ularni boshqarish samaradorligini baholash maqsadida o'zaro bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar joriy aktivlarning aylanish tezligi, ulardan foydalanish intensivligi hamda korxonada moliyaviy natijalariga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Joriy aktivlar harakatining asosiy ko'rsatkichi aylanish koeffitsiyenti hisoblanib, u quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$AK_{JA} = \frac{ST_{MS}}{JA_{O'Q}} \quad (1.1)$$

bu erda,  $AK_{JA}$  - joriy aktivlarning aylanish koeffitsiyenti;

$ST_{MS}$  - mahsulot sotishdan olingan sof tushum;

$JA_{O'Q}$  - hisobot davridagi joriy aktivlarning o'rtacha qiymati.

Mazkur ko'rsatkich joriy aktivlarning bir hisobot davrida necha marta to'liq aylanishini ifodalab, uning o'sishi aktivlardan foydalanish samaradorligining oshganligini ko'rsatadi.

Aylanish koeffitsiyenti bilan uzviy bog'liq bo'lgan joriy aktivlarning aylanish davomiyligi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$A_D = \frac{360 \text{ kun}}{AK_{JA}} \quad (1.2)$$

Aylanish davomiyligi joriy aktivlarning bir to'liq aylanishi uchun sarflanadigan vaqtni ko'rsatadi va uning qisqarishi korxonada aylanma mablag'laridan foydalanish tezlashganligini anglatadi.

Joriy aktivlarning qoplanish koeffitsiyenti quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$QK_{JA} = \frac{JA_{O'Q}}{ST_{MS}} \quad (1.3)$$

Ushbu ko'rsatkich joriy aktivlarning har bir so'm sof tushumga to'g'ri keladigan hajmini ifodalaydi va aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoj darajasini baholashda qo'llaniladi.

Joriy aktivlarning muomaladan chiqarilishi yoki aylanishdan bo'shashi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta JA = JA_1 - JA_0 \times O'S_{Ich} \quad (1.4)$$

bu erda,  $JA_1$  va  $JA_0$  - hisobot va o'tgan davrdagi joriy aktivlar miqdori;

$O'S_{Ich}$  - ishlab chiqarish o'sish sur'ati.

Mazkur ko'rsatkich joriy aktivlarni boshqarish natijasida iqtisod qilingan yoki qo'shimcha jalb etilgan mablag'lar hajmini aniqlash imkonini beradi.

Korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$TK_{O'AM} = \frac{O'AMMS}{JA_{O'Q}} \quad (1.5)$$

bu erda,  $O'AMMS$  - uzoq muddatli aktivlar va uzoq muddatli majburiyatlar o'rtasidagi farq.

Ushbu koeffitsiyent korxonaning joriy faoliyatini moliyalashtirishda o'z manbalarining etarlik darajasini aks ettiradi.

Tovar-moddiy zaxiralarning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti esa quyidagicha ifodalanadi:

$$TK_{TMZ} = \frac{O'AMMS}{TMZ} \quad (1.6)$$

Ushbu ko'rsatkich tovar-moddiy zaxiralarni moliyalashtirishda ichki manbalarning ulushini baholashga xizmat qiladi.

Joriy aktivlardan foydalanish samaradorligini umumiy baholashda ularning rentabellik ko'rsatkichi muhim ahamiyat kasb etadi:

$$R_{JA} = \frac{YF_{MS}}{JA_{O'Q}} \quad (1.7)$$

bu erda,  $YF_{MS}$  - mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda.

Joriy aktivlar rentabelligi joriy aktivlarning foyda shakllantirishdagi samaradorligini ifodalab, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Shu tariqa, joriy aktivlarni boshqarish jarayonida har bir element - pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va tovar-moddiy zaxiralar alohida tahlil qilinishi lozim. Bu esa joriy aktivlar tarkibidagi nomutanosibliklarni aniqlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Joriy aktivlar tarkibini ikkita mezon bo'yicha optimallashtirish mumkin. Aylanma kapital, aslida, foyda keltirmaydigan aktivlarga investitsiya hisoblanadi. Agar biz, aylanish tezlashishini maksimal darajada oshirishni, joriy aktivlar miqdorini minimallashtirishni maqsad qilgan bo'lsak, u holda, biz uchun undan foydalanish samaradorligini oshirish, uning rentabelligi va aylanma ko'rsatkichlarini minimallashtirish mezon bo'ladi.

Qanchalik kam aylanma mablag'lar bo'lsa, u qanchalik tez aylansa, har bir ishlab chiqarilgan mahsulot uchun ko'proq daromad va foyda keltiradi. Va ikkinchi mezon ehtiyotkor korxonalar uchun amal qiladi. Korxonada moliyaviy risklarni minimallashtiradi, rentabellik va aylanmani yo'qotadi, yuqori darajadagi moliyaviy barqarorlik va likvidlikni oladi.

Joriy aktivlarni tahlil qilish ularning umumiy hajmi dinamikasini o'rganishdan boshlab amalga oshirilishi kerak, shundan so'ng joriy aktivlarning tarkibiy elementlarini tuzilishini o'rganish va xususan ularning dinamikasini hisobga olish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, joriy aktivlar hajmini optimallashtirish orqali ularning aylanish koeffitsientini **0,1 punktga oshirish** korxonaning sof tushumini o'rtacha **3,1 % ga oshishiga** xizmat qilishi ilmiy asoslangan. Mazkur holat O'ZTEMIRYO'LMASHTA'MIR Aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

**Joriy aktivlar aylanuvchanligi koeffitsienti**

Joriy aktivlar aylanuvchanligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{ja} = ST / JA_{o'rt} \quad (1.8)$$

Bu yerda:

$K_{ja}$  – joriy aktivlar aylanuvchanlik koeffitsienti

ST – sof tushum

$JA_{o'rt}$  – joriy aktivlarning o'rtacha yillik qiymati

Aylanuvchanlik koeffitsientining o'sishi joriy aktivlardan foydalanish samaradorligi oshganligini anglatadi.

**Aylanuvchanlik o'sishining tushumga ta'sirini hisoblash**

Tadqiqot natijasiga ko'ra:

$$\Delta ST = ST \times 0.031$$

Bu yerda:

$\Delta ST$  – tushumning qo'shimcha o'sishi

ST – bazaviy sof tushum

0.031 – tushum o'sishining o'rtacha koeffitsienti (3,1%)

Amaliy hisob-kitob misoli

Tadqiqot natijalarini tushuntirish maqsadida shartli iqtisodiy misol keltiramiz.

**1-jadval****Joriy aktivlar aylanuvchanligining o'sishi natijasida tushum va foyda ko'rsatkichlarining o'zgarishi**

Ko'rsatkichlar	Bazaviy holat	Optimallashtirishdan keyin	O'zgarish
Joriy aktivlar (mlrd so'm)	100	100	-
Aylanuvchanlik koeffitsienti	2,0	2,1	+0,1
Sof tushum (mlrd so'm)	200	206,2	+3,1 %
Sof foyda (mlrd so'm)	20	22	+10 %

**Manba:** O'ZTEMIRYO'LMASHTA'MIR Aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari asosida mualliflashmasi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, joriy aktivlar aylanuvchanligining 0,1 punktga oshishi natijasida:

sof tushum 3,1 % ga,

sof foyda esa o'rtacha 10 % ga o'sishi kuzatilgan.

O'zbekistonda va xorijda xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga ta'sir qiluvchi global tashqi omillar sharoitida, shuningdek, to'lov qobiliyatini ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni saqlash, muvozanatli va yagona pul oqimlariga erishish, pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini boshqarish sifatini oshirishda mavjud obyektiv qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Aksariyat qurilish tashkilotlarida pul oqimlarini boshqarish tizimidagi muammolar kuzatilmoqda, bu esa, kompleks iqtisodiy tahlil va pul oqimlarini rejalashtirish tizimini tashkil etishga etarlicha e'tibor berilmaganligi, strategik va operativ boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlashning nomukammalligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda buxgalteriya hisobi va hisoboti qoidalarini takomillashtirish O'zbekistondagi xo'jalik subyektlarining pul oqimlarini oshkor qilish bo'yicha uslubiy yondashuvlarini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) qoidalariga yaqinlashishiga olib keldi. Biroq, O'zbekiston qonunchiligiga rioya qilish uchun har qanday

tashkilot O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining tegishli qoidalariga bilan tartibga solingan soliq hisobotidan tashqari, moliyaviy hisobotlarni fiskal organlarga taqdim etish qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda, buxgalteriya hisobining milliy standartlariga (BHMS) muvofiq yozuvlarni yuritishi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashi shart. Pul oqimini boshqarish, shubhasiz, har qanday tashkilotning ichki boshqaruvining asosiy tarkibiy qismidir. Iqtisodiy tahlil, rejalashtirish, tartibga solish, operativ monitoring va pul oqimlarini strategik prognozlashning zamonaviy mexanizmlarini boshqaruv amaliyotiga joriy etish tashkilotning muvaffaqiyatli faoliyatining kalitidir.

MHXS 7-son «Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot» bo'yicha pul oqimlari hisobotlari tahlil qilishda to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita usullarni gibridd qo'llashning integrativ yondashuvda yuritiladi:

To'g'ridan-to'g'ri usul - real pul harakatlarini ochiq ko'rsatadi,

Bilvosita usul - sof foydadan pul oqimiga o'tishdagi tuzatishlar orqali jarayonni tahlil qiladi.

Xo'jalik subyektining pul oqimlari hisoboti to'g'ridan-to'g'ri pul oqimlari (TF) va bilvosita usullarda (BF) shakllantirilishi belgilangan.

To'g'ridan-to'g'ri pul oqimlarini tahlil qilish usuli naqd pul tushumlarini (masalan, sotishdan tushgan daromadlar, avanslar) va chiqishlarni (masalan, etkazib beruvchilarga to'lovlar) tahlil qiladi va hisoblaydi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot pul oqimlarini tahlil qilish uchun asosiy hisoblanadi.

Bilvosita usul sof daromadni o'zgartiradi, ya'ni uni moslashtiradi va sof pul oqimlariga aylantiradi. Bunga foydaga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, ammo pul oqimlari bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalarni va pul oqimlari bilan bog'liq bo'lgan, ammo foydaga ta'sir qilmaydigan operatsiyalarni tan olish orqali erishiladi. Moliyaviy hisobot axborotning asosiy manbai hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda mazkur usullar o'rniga yangi hisobot usuli taklif etilmaydi, balki ular asosida olingan natijalarni integratsiya qiluvchi gibridd pul oqimi analitik modeli (GPAM) ( $\Delta k$ ) ishlab chiqilgan. GPAM to'g'ridan-to'g'ri usul orqali aniqlangan real pul oqimlari, bilvosita usul asosida hisoblangan transformatsiyalangan pul oqimlari hamda ular o'rtasidagi farqni tahlil qilish orqali korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholashga xizmat qiladi.

GPAM modelining 3 asosiy bloki quyidagilardan tashkil topadi.

1. To'g'ridan-to'g'ri blok (TF - Direct Flow Block). Real pul tushumlari va real pul chiqimlari asosida hisoblanadi. TF - bu real pul tushumlari va real chiqimlar o'rtasidagi farq bo'lib, korxonaning operatsion faoliyatda qay darajada naqd pul yaratganini ko'rsatadi. Ya'ni:

$$TF = \sum PT_i - \sum PX_j \quad (1.9)$$

$PT_i$  - pul tushumlari (segmentlar bo'yicha bo'linishi mumkin)

$PX_j$  - real pul to'lovlari (operatsion, moliyaviy, investitsion)

TF real sektor iqtisodiyotida ayniqsa muhim, chunki, aktivlar aylanish tezligi, kassaviy bo'shliqlar va mijozlarning to'lov intizomi aynan shu ko'rsatkich orqali yaqqol ko'rinadi.

### Xulosa va takliflar.

Tadqiqot ishida globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligi joriy aktivlar hisobini to'g'ri tashkil etish, boshqarishda ularning tahlilini amalga oshirish borasida kompleks choralarni amalga oshirishga doir yondashuvlar ishlab chiqildi. Barcha biznes subyektlarda jumladan, «O'ZTEMIRYO'LMASHTA'MIR» Aksiyadorlik jamiyatida joriy aktivlar ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, mahsulot tannarxini shakllantirish va moliyaviy natijalarni aniq belgilashda muhim iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, «O'ZTEMIRYO'LMASHTA'MIR» Aksiyadorlik jamiyatida joriy aktivlar hisobi va tahlilini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida takomillashtirish borasida ilmiy asoslangan quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Raqamli iqtisodiyot sharoitida joriy aktivlar «O'ZTEMIRYO'LMASHTA'MIR» Aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorligi, likvidligi va operatsion faoliyati uzluksizligini ta'minlovchi asosiy iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslandi. joriy aktivlar tushunchasiga nisbatan mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud ekanligi aniqlandi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida joriy aktivlar bir operatsion sikl davomida iqtisodiy foyda keltirish salohiyatiga ega aktivlar sifatida talqin qilinishi, ularning iqtisodiy mazmuniga asoslangan zamonaviy tasnifini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Bu holat milliy hisob amaliyotini raqamli iqtisodiyot talablari va MHXS mezonlari bilan uyg'unlashtirish muhimligini belgilab beradi.

2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy aktivlari takror ishlab chiqarish jarayonida harakatlanuvchi kapitalning funksional shakli sifatida tadqiq etilib, ularning iqtisodiy mohiyati quyidagi ilmiy jihatlar orqali ochib berildi:

- joriy aktivlar aylanishining uzluksizligi korxonaning joriy faoliyatini ta'minlovchi asosiy iqtisodiy shart sifatida namoyon bo'lishi;
- joriy aktivlar tarkibi va tuzilishidagi o'zgarishlar korxonaning likvidligi, to'lovga layoqatligi hamda moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi;
- joriy aktivlardan samarali foydalanish korxonaning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini belgilab beruvchi strategik omil ekanligi ilmiy asoslandi.

3. "O'ZTEMIRYO'LMASHTA'MIR" AJ hisob siyosati 2840-"Qurilishi yakunlangan obyektlar", 9160-"Qurilishi yakunlangan obyektlar tannarxi", 9060-"Qurilishi yakunlangan obyektlarni sotishdan daromadlar" nomli ishchi schyotlarni kiritish asosida takomillashtirish ya'ni, yangi ishchi schyotlarini kiritish orqali "O'ZTEMIRYO'LMASHTA'MIR" AJ tomonidan qurilishi yakunlangan obyektini sotish uchun mo'ljalangan bo'lsa tayyor mahsulot (tovar) sifatida buxgalteriya hisobida aks ettirish taklifi;

4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq qisqa muddatli savdo debitorlik qarzlari haqqoniy qiymat bo'yicha, uzoq muddatli debitorlik qarzlari ular samarali foiz usulidan foydalangan holda amortizatsiya qilingan qiymat bo'yicha hisobga olish taklifi;

5. Xo'jalik subyektlarida joriy aktivlar hajmini optimallashtirish orqali uning aylanuvchanligining 1 foizga ortishi tushumning o'rtacha 3,1 foizga oshishiga olib kelishi bo'yicha taklifi;

6. Global iqtisodiy beqarorlik sharoitida pul mablag'lari va pul oqimlarini samarali boshqarish xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati va strategik rivojlanishini ta'minlovchi omil sifatida ishlab chiqilgan gibrid pul oqimi analitik modeli (GPAM) real pul harakatlari, transformatsiyalangan pul oqimlari va ular o'rtasidagi tafovutni integratsiyalash orqali pul oqimlarini kompleks baholash taklif etilgan.

### **Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:**

1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (2022) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish". O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyrug'iga 2-ilova. <https://lex.uz/docs/6312360>.

39-son BHXS (2022) «Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash». O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyrug'iga 2-ILOVA. <https://lex.uz/docs/6312360>.

7-son BHXS. (2022) Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot [https://www.mf.uz/media/file\\_uz/audit/2022/msfo/Uzb\\_GVT\\_BB2022\\_A\\_IAS07.pdf](https://www.mf.uz/media/file_uz/audit/2022/msfo/Uzb_GVT_BB2022_A_IAS07.pdf).

9-son MHXS (2022) «Moliyaviy instrumentlar» O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyrug'iga 35-ILOVA. <https://lex.uz/docs/6312360>.

MHXS 13-son (2022) «Haqqoniy qiymatni baholash» O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyrug'iga 39-ILOVA. <https://lex.uz/docs/6312360>.

Qonun (2016) «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son. «Xalq so'zi» 2016 yil 14 apreldagi 73 (6508)-soni.

Qurbanov Z.N. va K.Misirov. (2022) Moliyaviy va boshqaruv hisobi: Darslik,–T.: «Iqtisod-Moliya». – 752 b.

Saoud J. Mashkour Alamry (2019). *Accounting in english* (pp.51) Publisher: Printed by: Dar Al-Dhiya for printing and Designs — 2 Ed, – Najaf – February <https://www.researchgate.net/publication/331287344> CHAPTER 4 CURRENT ASSETS.